

HUJJATLI FILM TURLARI KINOTANQIDCHI BIL NIKOLS TALQINIDA

O'rozaliyev Davlatbek¹¹ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Kino san'ati. Televideniye yo'nalishi

birinchi bosqich doktoranti

MAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:07.10.2024

Revised: 08.10.2024

Accepted:09.10.2024

Ushbu maqolada hujjatli film turli kinoijodkorlar tomonidan ayricha xil va turlarga bo'lingani ta'kidlanib, uning mashhur kinotanqidchi Bil Nikols varianti tadqiq qilingan. Hujjatli film turlarining tomoshabinga ko'rsatadigan ta'siri misollar vositasida yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

hujjatli film,
kinooperator, janr,
tomoshabin.

KIRISH. Inson ongi, hissiyoti hamda fantaziyasi orqali yaraladigan san'at turlarida janr tushunchasi doimiy dilemma bo'lgan, zero bunday yo'sinda yaraladigan ijod mahsuli hech qanday belgilangan chegara hamda qoidalarga bo'ysunmasligi ham mumkin. Muhimi u o'z auditoriyasiga ijodkor istagan hissiyotlarni hamda voqelikni yetkazib bersa bo'lgani. Bunda esa u har qanday ijodiy yo'ldan yurishi yoki yangi innovativ usullarni yaratishi mumkin. Aynan shu tarzda har qanday san'at yo'nalishida yangi turlanish hamda janrlar yaraladi. Bevosita hujjatli film san'ati ham o'zining turli formatlari hamda janrlariga ega.

Kinematografiya va albatta, hujjatli film zamonamizning nisbatan yangi san'at turi hisoblanadi, u XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan. 1896-yildagi Parijning ilk kinoteatridanoq insoniyat birinchi marotaba fragmentlardangina iborat bo'lsa-da, sahnalashtirilmagan hujjatli filmlarni tomosha qilishni boshlagan. Aynan o'sha yillarning o'zidayoq jurnalistlar hamda tanqidchilar filmlar va ularning turlari-yu janrlarini o'rganishni boshlashgan. Bunday janrlarga taqsimlash badiiy filmlarga nisbatan XX asrning o'rtalariga kelib to'liq shakllangan va keyinchalik faqat aralash janrlar o'rganilgan. Ammo hujjatli film olami bunday janrlashtirish ishlarida biroz chalkashlikda qoladi. Bunga asosiy sabablardan biri kinomaktablarining dunyo bo'ylab ko'pligi bo'lsa, yana boshqa yirik sababi turli

tanqidchilarning qator janrlarga har xil nomlanish bergani hamda hujjatli filmning jahon urushlari davridagi yirik deformatsiyasidir.

XX asrning oxiriga kelib 1991-yil AQSHdan kinotanqidchi, teoritik Bil Nikols (Bill Nichols) hujjatli filmni she'riy, ekspozitsion, refleksiv, kuzatuv, ijroviy va ishtirok kabi yirik olti turga bo'ladi. Ushbu turlanish hujjatli film hikoyasining tomoshabinga qanday yetkazilishi jihatidan bo'lingan. Bunda hujjatli filmning tasviriy uslublari hamda janrlari har qanday hujjatli filmning berilgan turlari tarkibiga kirishi mumkinligini u alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, barcha hujjatli filmlar bir xil emas va turli hujjatli film u yoki bu turkumlarga kirsa ham har xil tasvirga olish uslublari hamda turli tasviriy texnikalarni ishlatishi mumkinligini izohlagan.

She'riy hujjatli film turlari bu kayfiyat va hissiyotlarni tomoshabinga yetkazishda yetuk kompozitsion kadrlar va musiqiy yechimlardan foydalanadi. Bunday hujjatli film turida tomoshabinga to'g'ri chiziqli hikoya ketma-ketligini yetkazishdan ko'ra voqeaning emotsional ta'sirini yetkazishga harakat qiladi. Bu yo'lda, albatta, voqea ketma-ketligi ochiq berilmaydi. She'riy hujjatli filmning sifati bevosita u filmning kinooperatori hamda kompozitorining ish sifatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Chunki kadr va ohang bilan bu turdagi hujjatli filmlar tomoshabinga voqea mohiyati hamda mazmunini og'zaki kontekstsiz yetkazishi darkor. Bunday hujjatli filmning ilk namunalaridan biri sifatida 1938-yilda Germaniyada namoyish etilgan Leni Riefenstahlning "Olimpiya" hujjatli filmini olishimiz mumkin. Yaqin yillarda suratga olingan va mashhurlik cho'qqisiga erishgan film sifatida esa ilk bor Fransiyada 2009-yil namoyish etilgan Yan Artus-Bertran (Yann Arthus-Bertrand)ning "Uy" (Home) filmini olishimiz mumkin. She'riy hujjatli film tur jihatdan, undagi kompozitorlik hamda professional kinooperatorlik ishlarini hisobga olmaganda, xuddi televideniyaning jurnalistik "no comment" janriga o'xshash bo'ladi. Ammo she'riy hujjatli filmning tub mohiyatida achchiq haqiqatlarni ro'y-rost ochib bera olish uchun filmni mavhum hikoya qilish yotadi.

Ekspozitsion hujjatli filmlar hujjatli filmning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Unda filmning asosiy subyekt yoki obyekt bo'yicha muayyan aniq bir pozitsiya yoki argument o'rnatiladi va shu bo'yicha "kadr orti diktator ovozi" bilan film to'liq tomoshabinga ochib beriladi. Bunday usul Amerika kino maktablarida "Xudo ovozi" (voice of God) deya yuritiladi. Ekspozitsion hujjatli filmda aynan o'sha ovoz argumentlari qo'llab quvvatlovchi hamda tasdiqlovchi kadrlar shu ovoz bilan birgalikda tomoshabinga yetkaziladi. Bunday kadrlar arxiv kadrlar, tayyor futajlar, b-roll kadrlar yoki rekonstruktiv kadrlar bo'lishi mumkin. Ekspozitsion hujjatli film ma'lum bir ma'lumotni tomoshabinga yetkazishda

to'g'ridan to'g'ri u mavzuni so'zlab hamda ko'rsatib beradi. Bunday hujjatli filmlar ta'lim tizimida hamda ma'lum buyurtma va tarixiy filmlarda ko'p qo'llaniladi. Bunday filmlarning asosiy maqsadi o'zi so'zlab berayotgan voqea argumentlariga tomoshabinni ishontirish hisoblanadi. Bunday filmlarga misol sifatida urush yillaridagi qator "propoganda" filmlarni keltirishimiz mumkin va Piter Shnal (Peter Schnall)ning "Revolutsiya" (The Revolution) kichik hujjatli serialini va so'ngi yillardagi mashhur Ken Berns(Ken Burns)ning 2012-yildagi "Chang qutisi" (Dust Bowl) filmi olishimiz ham mumkin.

Refleksiv hujjatli film bu ijodkorning qanday film bo'lishidan qa'tiy nazar tasvirga olayotgan filmidagi vaziyat hamda voqealarga diqqat qaratilgan hujjatli filmlar turidir. Mavzu ko'pincha film yaratish jarayonini o'zi bo'lganligi sababli kinematograf butun film ishlab chiqarish jarayoni, ya'ni bevosita tasvirga olish ishlari, montaj, ovozashtirish, postprodakshn jarayonlarini kadr ortida tasvirga oladi. Bunday filmning asosiy mohiyati film yaratishdagi qiyinchiliklarga qaratiladi. Bunday bir hujjatli film bilan muayyan bir ikkinchi filmidagi vaziyatlarni ochib berish mumkin va shu orqali film bergan argumentlar sabablarini tomoshabinga tushuntiradi hamda ba'zi vaziyatlari oqlaydi. Tomoshabin bunday filmida o'zini kinoijodkorlarning o'rniga qo'yadi hamda uning kechinmalarini his qila oladi. Refleksiv hujjatli filmning dunyo bo'ylab eng mashhurlaridan biri Dziga Vertovning 1929-yildagi "Kinokamerali odam" (Man with a Movie Camera) hisoblanadi. Bunday hujjatli filmlar aksariyat hollarda eksperimental hujjatli filmlar hisoblanadi.

Kuzatuv hujjatli filmlari turi Fransiyada paydo bo'lgan "Cinema verite" harakati tomonidan aniqlangan va tasdiqlangan. Bunday hujjatli film voqelikni reallikka ta'sir qilmasdan tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ular voqeaning asosiy subyektini umuman boshqarmagan holatda uni chetdan kuzatib yurish orqali tasvirga oladi va aynan shu yo'l bilan ma'lum bir ma'noni va tub haqiqatni yetkazishga harakat qiladi. Subyektini reallikdagi o'rniga, harakatlariga ta'sir qilmasdan, uni chalg'itmasdan chetdan tasvirga olish uslubi Amerika va Yevropa kinomaktablarida "devordagi pashsha nigohi" (fly-on-the-wall) deb yuritiladi. Kuzatuv hujjatli filmlaridagi voqea rivoji aynan sodir bo'layotgan voqea (real-time) orqali va uning haqiqiy ovozi bilan beriladi. Unda kadr ortidagi diktator ovozi ham sahnalashtirilib tasvirga olingan intervyu kadrlari ham bo'lmaydi. Kuzatuv hujjatli filmlarining ssenariysi hamda sinopsizi ham juda qisqa va mavhum boladi. Chunki film rivoji uning rejissyori tasvirga olgani va ma'lumotlarni o'rgangani sari o'sib boradi. Bunday hujjatli film tasvirga olinishida har bir kadrning xronometraji katta bo'ladi. Aynan shu jihatdan bunday hujjatli filmning kinooperatori zimmasiga uzoq vaqt tasvirga olish hamda shu vaqtning o'zida obyekt, subyektlarni chalg'itmasdan, ularni joylashuvini

o'zgartirmasdan ekspozitsion hamda kompozitsion to'g'ri kadrlar olish yuklanadi. Hujjatli filmning bunday turiga 2010-yilda rejissyor Yanuz Mets (Janus Metz) tomonidan tasvirga olinib, namoyish etilgan "Armadillo" filmi hamda 1967 yilda rejissyor D. A. Pennebaker tomonidan tasvirga olingan "Bob Dilan: Ortga qarama" (Bob Dylan: Don't Look Back) va boshqa ko'plab mashhur filmlar kiradi.

Ijroviy hujjatli filmlar turi o'z nomi bilan filmning voqea rivojida uning kinematografi qatnashishini talab qiladi. Unda ma'lum muammo yoki mavzu argumentini sinab ko'rishda hamda yechishda kinematografning o'zi ishtirok etishi talab etiladi. Bunday hujjatli filmda rejissyor film argumentidagi voqealarni o'zining qatnashuvi hamda shaxsiy kechinmalari orqali tomoshabinga yetkazadi. Bunday hujjatli filmni tasvirga olishda xuddi reflektiv hujjatli film kabi filmning tasvirga olish jarayonlari, film mavzusi hamda rejissyori o'rtasidagi bog'lanishlar, mavzuga doir b-roll va futajlar ishlatiladi. Misol uchun ijodkor zavod va fabrikalarning inson sog'ligiga qanchalik jiddiy zarar keltirishini o'ziga mavzu qilib oldi hamda u aynan ijroviy hujjatli film turida ijod qilishni tanladi. Bu holda film kinematografi o'zi ma'lum biror zaharli gaz tarqatuvchi zavod ichiga kiradi va kunlab o'sha yerni o'rganadi va ishchilar bilan suhbatlashadi, tomoshabinlarga o'zining sog'ligi hamda undagi zararlanishlarni analizlar orqali aniqlashtirib tomoshabinga yetkazadi. Bu orqali u butun ishchilarning sog'ligi qay darajada xavf ostidaligini jamiyatga yetkazishi mumkin. Hujjatli filmning bu turi 1980-yillarda reflektiv hujjatli filmlari bilan birga paydo bo'lgan. Ijroviy hujjatli filmlar odatda ko'proq hissiyotlarga asoslangan va kattaroq siyosiy yoki tarixiy motivlarga ega bo'lishi mumkin. Hujjatli filmning aynan shu turi ma'lum bir joy, insonlar yoki voqealar haqida ma'lumotlarni qiziqarli tarzda yetkazadi. xuddi shunday usulda kinematograf Morgan Sparlak (Morgan Spurlock) o'zining 2004 yildagi "Supersize Me" filmida foydalangan. Unda ijodkorning o'zi 30 kun davomida "McDonald's"da ovqatlanadi va o'zining organizmidagi o'zgarishlar bilan tomoshabinlarga yuzlanadi. Xuddi shu kabi ma'lum bir mavzu hamda sferaga bevosita ijodkorning o'zi kirib, qatnashib va boshidan o'tganini hamda o'rgangan faktlarini tomoshabinga kino hamda tasvir tilida yetkazishi ijroviy hujjatli filmning asosini tashkil qiladi.

Ishtirok hujjatli filmlari "Ijroviy" hujjatli filmlariga filmda ijodkorning qatnashuvi bilan o'xshab ketishi mumkin, ammo ishtirok etuvchi hujjatli filmda rejissyor mavzu muhitida o'zi ma'lum ijroni amalga oshirmaydi balki unda faqatgina qatnashadi, boshqa obyekt va subyektlar bilan bevosita informatsiya almashadi. Mana shu kadrda film ijodkori - mavzuga doir vakillarning informatsion almashinuvi film uchun asosiy manbaa hisoblanadi. Ya'ni bunday filmda film ijodkori filmda qatnashib o'zi narrativni olib boradi va film voqearini

tomoshabinga o‘zi narrativ boshlovchi sifatida yetkazadi. Bunday filmda aksariyat holda film mazmuni filmda qatnashayotgan film ijodkori subyektiv fikrlaridan iborat bo‘ladi. Bunday filmlarga misol tariqasida hujjatli film olamidagi mashhur ijodkor Maykl Mur (Michael Moore)ning filmlarini olish mumkin. Uning Farengeyt 9/11 (2004) filmida ijodkor tomoshabinlarda film mavzusi tomoshabinlardagi g‘azab-nafrat tuyg‘ularini avj oldirishi uchun ma‘lum yechimlar qilgan. Filmda u Iroqdagi urush qanday boshlangani va Amerikaning bunga munosabati haqida o‘z talqinini yaratib chiqadi. Bunda u vayron bo‘lgan ko‘chalar hamda to‘plangan olomonlar ichida yurib xuddi “ko‘chadagi inson” (man on street) yoki milliy telekanalimizda ko‘p tasvirga olinadigan uslub “voks pop”ga o‘xshash usullarda o‘zining intervyularini tasvirga oladi va o‘zining mavzuga munosabatini film orqali tomoshabinlarga yetkazadi.

“Hujjatli film janrlari, tasvirga olinish turlarining har qanday ro‘yxati, albatta, munozarali bo‘ladi. Bu umumiy san‘at yo‘nalishlarining janr konsepsiyasi muammosidir. Bevosita har qanday san‘at asari bu ijodkorning bog‘lab, cheklab bo‘lmas dunyoqarashi hamda fantaziyasining namunasidir. Hattoki badiiy va hujjatli filmlarning bir-biridan farq yaratuvchi kategoriyalarining o‘zi ko‘pincha shubha ostiga qo‘yilganligi sababli vaziyat yanada murakkablashadi va ba‘zi hujjatli usullar uchun bu shubha asosiy tamoyilga aylandi”, deya ta‘kidlab yozadi kinoshunos Andrey Kartashev o‘zining kino akademiyasiga bergan maqolasida. Bil Nikolsning o‘zi ham yuqorida ta‘kidlangan hujjatli filmlar turlari jihatidan “ma‘lum bir turning xususiyatlari biror filmda dominant rolini o‘ynaydi ... lekin ular uni tashkil qilishning har bir jihatini belgilamaydi yoki chegaralamaydi” deya qayd etgan. Ya‘ni hujjatli film turlari davr va texnika rivoji bilan o‘zgarishi mumkin. Bundan tashqari yuqoridagi turlar o‘zaro qorishiq holda ham kelishi mumkin. Shuni alohida ta‘kidlash muhimki, Bil Nikolsning hujjatli film turlari jihatidan olib borgan izlanishlari juda ham ahamiyatli, ammo Nikolsning tuzgan turlaridan tashqari yana qator hujjatli film analizlari hamda boshqacha talqindagi turlar mavjud. Bunga yorqin misollardan biri De Bromhed (De Bromhead)ning hujjatli film turlari ro‘yxatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blain Brown. Cinemtography: Theory and practice. -New York, 2002.
2. Meliqo‘ziyev I. Cinematographer’s ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International journal of advanced science and technology, 29 (05), 1554-1567.

3. Abul-Kasimova X. Кино и художественная культура Узбекистана. – Т.: “Fan”,- 1991.
4. Н. Ikromov; O‘zbekiston Davlat san’at instituti. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 100 b.
5. [Киноискусство узбекистана: вчера и сегодня](#) И.М. Меликузиев
6. O‘zbekiston hujjatli kinosi: Mustaqillik davri, 1991-2007 yillar/Tuzuvchi va mas’ul muharrir S. Haytmatova; OAJ O‘zR ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar kinostudiyasi, O‘zbekiston badiiy akademiyasi San’atshunoslik instituti. – Т.: ART FLEX, 2008. – 116 b.
7. O‘zbekiston san’ati: Globallashuv va milliy o‘ziga xoslik. Yosh olimlarning ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2004. – 58 b.
8. <https://www.thrillist.com/entertainment/nation/best-amazon-prime-documentaries>
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Documentary_film
10. <https://topdocumentaryfilms.com/>

